

OLIIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH(o'zbek tili)
TA'LIM YO'NALISHI 6-3UZB-11 GURUH TALABASI
AZIZA UCHQUNOVA TOMONIDAN
“ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI” FANI BO'YICHA
TAYYORLANGAN

Реферату

MAVZU: Hikoya, qissa, esse (Shukur Xolmirzayev ijodi
misolida).

Tekshirdi: Samandarova G.

Buxoro – 2015

Reja:

Kirish.

Birinchi bob. Adabiy tur va adabiy janrlar haqida umumiy ma`lumot.

- 1.1. Epik tur borasida kengroq mulohaza.
- 1.2. Hikoya janri.
- 1.3. Qissa va esse janrlari haqida.

Ikkinchi bob. Shukur Xolmirzayevning ijod olami.

- 2.1. Shukur Xolmirzayevning hikoya va qissa janrlariga qo'shgan ulkan hissasi.
- 2.2. Shukur Xolmirzayev: "Esse – erkin ijod".

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Yurtimizda mustaqillik qo`lga kiritilgach, barcha sohalarda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Jumladan, o`zbek adabiyoti ham bir qancha imkoniyatlarni,

qulayliklarni qo`lga kiritdi. Shulardan eng birinchisi ijod erkinligidir. Endi badiiy ijodda ma`n etilgan mavzularga barham berildi. Ijodkorlar istagan mavzusida o`z xohishi bilan asarlar yozish huquqiga ega bo`ldi. O`zbek adabiyotshunosligida ham ana shunday erkinliklar qo`lga kiritildi. Adabiy me`rosga, qadimiy qadriyatlarga munosabat o`zgardi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha madaniy yodgorliklar yana xalqimizning ma`naviyatini ko`tarishda qo`llanila boshlandi.

Adabiyotimiz daqiqa sayin yuksak cho`qqilar sari odimlayotgani shubhasizdir.

Bunda faqat yaratilayotgan asarlar bilangina chegaralanmasdan, yaratilgan asarlar borasida qilingan ishlarni ham inobatga olish maqsadga muvofiq, nazarimda. Quyida biz adabiy janrlar haqida va ularning ayrimlari borasida mukammalroq to`xtalishga harakat qilamiz.

Adabiy asarlar shakl jihatdan benihoya rang-barang bo`ladi. Shuning uchun ularni alohida-alohida guruhlarga ajratib o`rganish lozim. Adabiy asarlar shaklan quyidagi klassifikatsiya qilinib o`rganilishi maqsadga muvofiq: adabiy asarlarning eng yirik gruppalari adabiy tur, adabiy turning ichki gruppalari adabiy tur formalari yoxud adabiy xillar, adabiy xilning ichki guruhlari adabiy janrlar (frans. genre) va nihoyat, adabiy janrlarning ichki bo`linishi janr formalari. Masalan, roman – adabiy janr. U epik turning katta formasiga mansub, ayni choqda, romanning o`zi ham har xil bo`ladi: tarixiy roman, tarixiy-inqilobiy roman, harbiy roman kabi. Bular roman janri formalari. Adabiy ijodni bu xilda tasnif qilish, albatta, shartli an`ana. Ammo bu an`ana ham adabiy jarayonning muayyan bosqichidagi adabiy-estetik ehtiyojlar taqozosi bo`lib, u shu davr adabiy jarayonini, undagi uzluksiz o`zgartirishlarni o`zida mujassamlashtira oladi. Chunki adabiy tur va adabiy janrlar tarixiy kategoriya sifatida doimiy harakat, rivojlanish va o`zgarish jarayonini boshidan kechirib turadi: adabiy hayotda qandaydir forma sifat o`zgarishlariga uchraydi yoki o`z umrini tugatadi, qandaydir yangi forma tug`iladi va hakozi. Adabiy turlar va adabiy janrlarning har biri tarixan tarkib topgan o`ziga xos qonuniyatlar, normalar va xususiyatlarga ega bo`ladi.

Voqealarni keng hikoya qilishga asoslangan adabiy asarlar gruppasiga epik tur yoki epos (yunoncha epos – rivoya, hikoya, soʻz, nutq) deb ataladi. A.Qahhorning “Sarob”, Oybekning “Qutlugʻ qon” kabi asarlari eposga kiradi. Chunki, ularda maʼlum voqealar tizmasi (kishilar va ularning boshidan oʻtgan voqealar) hikoya qilinadi.

Epik tur kichik, oʻrta va katta formalarga boʻlinadi. Kichik epik forma – latifa, ertak, feleton, hikoya, ocherk janrlaridan iborat. Oʻrta epik forma – povest va katta forma – epopeya va roman janrlarini oʻz ichiga oladi.

Roman (fransuzcha roman – dastlab roman tillarida yaratilgan adabiy asar) – inson xususiy hayotini jamiyat bilan bogʻlab, keng tasvirlovchi yirik epik janr. Muayyan shaxs taqdiri, uning oʻz-oʻzini anglab yetishi: ongining uygʻonishi, xarakterining tashkil topishi va shakllanishi roman markazida turadi, shaxslar taqdiri vositasida ijtimoiy hayotning u yoxud bu jihatlari ifodalanadi. Povest va hikoyadan farqli oʻlaroq, romanda qalamga olingan voqea-hodisalarda koʻp kishi qatnashadi, ularning hayoti va kurashlari bir-biri bilan bogʻlanadi, toʻqnashadi.

Povest (ruscha povestvovat – rivoyaviy hikoya qilish) – bosh qahramon taqdiri vositasida hayotning u yoxud bu qirralarini oʻrta epik formada rivoyaviy usul bilan aks ettiruvchi asar.

Hikoya, novella (italyancha novella - yangilik) – inson hayotidagi u yoxud bu yorqin hodisani, sotsial yoxud psixologik konfliktni xarakter bilan uzviy bogʻliq holda rivoyaviy usulda tasvirlovchi kichik epik asar. Hikoya yoki novella epik turning kichik janri. Bu asar, odatda, kishi hayotidagi gʻoyatda muhim voqea tasviriga bagʻishlanadi va unda shu voqeaga qadar va undan soʻng roʻy beradigan voqealar batafsil bayon qilinmaydi.

Ocherk (ruscha ocherkat – tasvirlash, chizish)- ijtimoiy hayot voqealarini, real kishilar faoliyatidagi muhim hodisalari, zarur ijtimoiy muammolarni rivoyaviy usulda aks ettiruvchi epik asar.

Lirika (yunoncha lyrisos – lira joʻrligida kuylash) – badiiy adabiyotning asosiy turlaridan biri boʻlib, biror hayotiy voqea-hodisa taʼsirida inson qalbida tugʻilgan ruhiy kechinma, fikr va tuygʻular orqali voqelikni aks ettiradi.

Poema (yunoncha roïema - ijod) – inson qalb prizmalari osha hayotning poetik momentlarini va dolzarb muammolarini aks ettiruvchi epik, lirik, lirik-epik va dramatik xarakterdagi yirik hajmli sheʼriy asardir.

Ballada (fransuzcha ballade – lotincha ballo – raqsga tushaman) –inson hayotining dramatik momentlari va poetik nuqtalarini koʻtarinki ruhda ifodalovchi rivoyaviy (ixcham)sheʼriy asar, qalb tugʻyoni. Ballada uslubida romantika yorqin ufurib turadi. Ballada, odatda, oʻtkir dramatik voqea zaminiga quriladi, unda hayot dramasi qahramonning qalb prizmalaridan oʻtkazilib tahlil etiladi, turmushdagi gʻoyatda muhim muammolar yoritiladi, keskin vaziyatla lirik qahramon qalbida tugʻilgan his-tuygʻular, qaynoq qalb harorati lirik-romantik boʻyoqlarda ifodalanadi.

Masal (arabcha -namuna) – taʼlimiy-axloqiy, didaktik, kinoyaviy xarakterdagi kichik hajmli sheʼriy yoxud nasriy asar. Masalda, odatda, odamlarning ayrim nuqsonlari, ijtimoiy munosabatlardagi nobopliklar allergik obrazlar (hayvonlar, parrandalar, qushlar, jonivorlar, tabiat hodisalari) vositasida tanqid qilinadi, pand-nasihat, axloqiy oʻgitlar targʻib etiladi.

Badiiy adabiyotning uchinchi turi – dramatik turdir. V.G.Belinskiy dramatik poeziyaning xususiyatlari haqida toʻxtalib, deydi: dramada epos lirika bir butun boʻlib birlashadi: ichki hodisa oʻz ichida qolishdan toʻxtaydi va tashqariga chiqadi, amalda oʻzini koʻrsatadi: ichki, ideal (subʼektiv) hodisa tashqi, real (obʼektiv) hodisa boʻlib qoladi.

Tragediya (yunoncha tragos – echki, taka, odo – qoʻshiq; tragoidia-taka haqida qoʻshiq) –qahramonlarning ruhiy kolliziyasiga asoslanadigan, gʻoyatda joʻshqin, ehtirosli, taʼsirli va oqibati fojia bilan tugaydigan dramatik janr.

Komediya (yunoncha somodia; somos- xushchaqchaq olomon va oide - qo`shiq) – ijtimoiy hayotning ayrim jihatlarini va kishilar hayotidagi, xarakteridagi nuqsonlarni, eskilik sarqitlari, qoloqlik va boshqalarni masxara qilish, ular ustidan xushchaqchaq kulish ruhi bilan yo`g`rilgan pesa.

Drama (yunoncha drama – amaliyot, harakat) – inson xarakteri va taqdiri dramatik vaziyatda ko`rsatuvchi, hayotning murakkab damlarini qahramonlarning amaliyoti – harakatlari vositasida ifodalovchi sahna asari.

Epik turning spetsifik xususiyatlari haqida gap ketganda avvalo voqeabandlikni tilga olinadi. Darhaqiqat, epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqea-hodisalar tasvirlanadi, so`z vositasida o`quvchi tasavvurida reallik kartinalariga monand jonlana oladigan to`laqonli badiiy voqelik yaratiladi. Tasavvurda reallikdagiga monand, o`zining tashqi shakli bilan jonlangani uchun ham epik asardagi badiiy voqelikni "plastik" tasvirlangan deb aytiladi. Epik asarda plastik elementlar bilan bir qatorda noplastik elementlar ham mavjud bo`lib, bu elementlar muallif obrazini tasavvur qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Epik asarning noplastik elementlari deyilganda muallifning mushohadalari, fikrlari, tasvir predmetiga hissiy munosabati kabilar tushuniladi. Tabiiyki, noplastik unsurlar, plastik unsurlardan farqli o`laroq, asarni o`qish davomida o`quvchi tasavvurda jonlanmaydi. Epik asarda obyektiv va subyektiv ibtidolarning uyg`un birikishi kuzatiladi: asardagi badiiy voqelikni biz shartli ravihda obyektiv ibtido deb olsak, asar to`qimasining har bir nuqtasiga singdirib yuborilgan muallif shaxsini biz subyektiv ibtido deb yuritamiz. Badiiy voqelikni shartli ravishdagina "obyektiv" ibtido deyishimizga sabab, u reallikdan olingan oddiygina nusxa emas, balki voqelikning ijodkor ko`zi bilan ko`rilgan, ideal asosida idrok etilgan, baholangan va ijodiy qayta ishlangan aksi ekanligidir. Shunday ekan, muallif obrazi hatto "obyektiv tasvir" yo`ldan borilib, muallif imkon qadar o`zini chetga olgan asarlarda ham mavjud bo`lishi tabiiydir. Demak, epik asarlarda badiiy voqelik bilan bir qatorda noplastik muallif obrazi ham har vaqt mavjuddir.

Epik turga mansub asarlar asosan nasriy yo`lda yozilishi, shuningdek, nasriy yo`lda lirik asarlar ham yaratilishi mumkinligini ilgari aytiladi. Demak, nasriy yo`lda yozilganligining o`zigina asarni epik deyishimizga asos bermaydi, "nasriy asar" va "epik asar" tushunchalari bitta ma`noni anglatmaydi.

Voqeabandlik epik turning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Epik asarda, odatda, makon va zamonda kechuvchi voqealar tasvirlanadi, muallif yoki hikoyachi-personaj tomonidan hikoya qilinadi. Bu esa epik asarlarda rivoya, tavsif, dialogning qorishiq holda kelishini taqozo qiladi, zero, ularning bari birlikda o`quvchi tasavvurida badiiy voqelikni plastik jonlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, eposda rivoya an`anaviy ravishda yetakchi o`rinni egallaydi, uning vositasida asarga dialog hamda tafsilotlar (peyzaj, portret, narsa-buyumlar va h.) olib kiriladi. Rivoya bu unsurlarning barini yaxlit butunlikka birlashtiradi.

Epik turning takomili jarayonida undagi rivoyaning salmog`i kamayib borishi kuzatiladi. Masalan, xalq og`zaki ijodidagi ertaklar, hikoyat va rivoyatlarda rivoyaning salmog`i katta bo`lgani holda, dialogning salmog`i unchalik katta emas, tafsilotlar esa badiiy voqelikni to`laqonli tasvirlashga ko`pincha yetarli bo`lmaydi. Rivojlanish jarayonida eposda keyingi ikkisining salmog`i va ahamiyati ortib boradi. Bu narsa badiiy adabiyotning boshqa san`at turlari bilan aloqasi, ularga xos usul va vositalarni o`ziga singdirishi natijasidagi tasvir va ifoda imkoniyatlarining kengayishi sifatida tushunilishi mumkin. Masalan, dramaturgiya va teatrning rivojlanishi natijasida inson xarakterini yaratishning dramaturgik usullari ishlab chiqildi, sayqallandi; teatr san`atining rivoji o`quvchi ommani dramaturgik usulda yaratilgan inson xarakterini anglashga, dialoglar vositasida yaratilayotgan badiiy voqelikning mohiyatini tushunishga tayyorladi, ya`ni, badiiy didni rivojlantirdi. Shu asosda eposga dramatik unsurlar kirib keldi. Epik asardagi dialog dramatik asardagi dialogdan o`zining hayotiyligi, ma`no ko`lamining kengligi bilan ajralib turadi. Buning asosi shundaki, epik asarda dialog amalga oshayotgan konkret hayotiy situatsiya, unda qatnashayotgan personajlarning ruhiy holati, xarakter xususiyatlari haqida kengroq tasavvur berish

imkoniyatlari mavjud. YA`ni, personajning dialogda aytilayotgan har bir gapi butun asar kontekstida tushunilishi mumkin.

Epik asarda voqea-hodisalarni hikoya qilib berayotgan shaxs roviy yoki hikoyachi deb yuritiladi. Yuqorida aytganimizdek, epik asarda rivoya ko`pincha muallif tilidan, ba`zan esa personajlardan biri tilidan olib boriladi. Masalan, g`afur g`ulomning "Shum bola", "Yodgor", X.To`xtaboyevning "Sariq devni minib", E.A`zamovning "Otoyining tug`ilgan yili" kabi qissalarida rivoya personaj tilidan olib boriladi. Shuningdek, rivoya asosan muallif tilidan olib borilgan asarlarda ba`zan epizodik ravishda roviy-personajning paydo bo`lishi ham kuzatiladi. Masalan, "O`tgan kunlar"da rivoya muallif tilidan olib boriladi, romanga kiritilgan "Usta olim hikoyasi"da esa rivoya personaj tilidan olib boriladi. Roviyning o`zgarishi, tabiiyki, muayyan badiiy-estetik maqsadlarga xizmat qiladi. Buni yuqorida eslatganimiz "O`tgan kunlar"da roviyning o`zgarishini yuzakigina mushohada qilinsayoq ko`rish mumkin bo`ladi. Hikoyaning usta Olim tilidan berilgani, avvalo, tabiiylikni ta`minlaydi: o`z xonadoniga kutilmagan mehmon sifatida kirib kelgan va bir ko`rishdayoq ko`ngliga o`tirishgan Otabekning kayfiyatini ko`tarish, nima bilandir mashg`ul qilish istagi usta Olimni o`zining kechmishi haqida hikoya qilishga, shu bahona ko`nglini bo`shatishga undaydi. Xuddi shunday holatning hayotda yuz berishi mumkinligi tabiiy, albatta. Ikkinchidan, usta Olim hikoyasining kiritilishi bu ikkisining bir-birlari bilan samimiy do`st bo`lib qolishlarini, Otabekning keyingi Marg`ilon kelishlarida ham shu xonadonda qo`nib yurishi, nihoyat, chor qo`shinlariga qarshi jangda ikkisining bir safda bo`lishini asoslaydi. Yoki "Shum bola" qissasida rivoyaning personaj tilidan hikoya qilinishi ham o`ziga xos badiiy samara bergani shubhasiz. Deylik, mabodo qissada rivoya yozuvchi tilidan olib borilganda, undagi ayrim epizodlar o`quvchida shubha uyg`otishi, ishonchsizlik qo`zg`ashi mumkin bo`lardi. Qorajon tilidan olib borilganda esa biroz orttirilgandek ko`ringan o`rinlar hikoyachining fe`liga yo`yiladi, boz ustiga, uning xarakter xususiyatlarini yorqinroq ko`rsatishga ham xizmat qiladi.

Ba`zan epik asar muallifi rivoyani u yoki bu yo`l bilan badiiy asoslashga harakat qiladi va bunda turli usullardan foydalanadi. Rivoyaning asoslanishi (motivatsiya) o`quvchida "asar voqealari o`ylab chiqilgan emas, haqiqatda yuz bergan" degan tasavvurni uyg`otadi. Masalan, A.Qodiriy har ikki romanida ham rivoyani asoslash uchun ularni go`yo bobosidan eshitgandek, endi esa ularni o`quvchiga qayta so`zlab berayotgandek bo`ladi. Shunga o`xshash, epik asarlarda voqealar ba`zan tasodifan yozuvchi qo`liga tushib qolgan birovning xati, kundalik daftari yoki qo`lyozmasi, tasodifan uchrashib qolgan kishi hikoyasi yoki o`zi tasodifan shohidi bo`lib qolgan voqea va h. tarzida berilishi mumkin. Biroq mazkur usullar epik asarda qo`llanilishi zarur yoki rivoya albatta asoslanishi lozim degan fikrga bormaslik kerak. Aksincha, bu xil usullar zamonaviy nasrchilikda nisbatan qo`llanadi, aksariyat epik asarlarda "obyektiv tasvir" yo`lidan boriladi, ya`ni, yozuvchi xolis kuzatuvchi mavqeida turadi va o`zining bosh vazifasi deb o`z-o`zicha sodir bo`layotgan voqealarni tasvirlab berishni tushunadi.

Epik asarlar tahlilida e`tibor qaratish muhim bo`lgan unsurlar sirasida obrazlar sistemasini ajratish zarur bo`ladi. Obrazlarning bir-biri bilan mazmuniy munosabati asosida asarning mazmuni ochiladi. Obrazlar sistemasi kompozitsiyaning muhim elementi bo`lib, u muallifning ijodiy niyatiga muvofiq tarkiblanadi. Obrazlar sistemasi deyilganda, xususan, yirik epik asarlar haqida gap borganda ko`proq undagi personajlarning jami tushuniladi (biroq obrazlar sistemasi asardagi boshqa obrazlar narsa buyumlar, tabiat, jonivorlar va h.larni ham o`z ichiga olishini har vaqt yodda tutish zarur). Epik asardagi obrazlar asar voqeligida egallagan mavqei, syujet rivojida o`ynagan roli, muallif badiiy konsepsiyasini ifodalashdagi ahamiyati kabi jihatlardan bir-biridan farqlanadi. Shunga ko`ra odatda qahramon, ikkinchi darajali personaj va yordamchi personajlar obrazlari ajratiladi. Qahramon deganda asar syujetida, muallif badiiy konsepsiyasini ifodalashda yetakchi ahamiyat kasb etuvchi personajlar tushuniladi. Ikkinchi darajali personajlar asar qahramonlari tegrasida harakatlanib, syujet rivoji va badiiy konsepsiyaning ifodalanishida ma`lum rol o`ynagani holda, asosan qahramon xarakterini ochishga, u harakatlanayotgan muhitning xususiyatlarini,

uning taqdirini ko'rsatishga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Yordamchi personajlar yuqoridagilarning har ikkisi nisbatan yordamchilik funksiyasida bo'lib, ular mavqei jihatidan badiiy detalga yaqin turadi. Masalan, "O'tgan kunlar" romanining qahramonlari sifatida Otabek (bosh qahramon), Yusufbek hoji va Kumushbibi (oxirgisi badiiy konsepsiyani ifodalashda tutgan o'rni nuqtai nazaridan quyiroq mavqe egallaydi), ikkinchi darajali personajlari sifatida - Hasanali, O'zbek oyim, Oftob oyim, usta Olim, Zaynab, Homid obrazlari, boshqa personajlarning bari yordamchi personajlar sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Epik asarlarni janrga ajratish prinsiplari masalasida adabiyotshunoslikda turlichalik mavjud. Bunda bir qator xususiyatlarni e'tiborga olish zarur bo'ladi. Avvalo, epik asarlardagi hayotni badiiy qamrov ko'lamini turlicha bo'lishidan kelib chiqiladi. Masalan, epik asar qahramon hayotidan birgina epizodni (hikoya), butun bir etapni (qissa) yoxud qahramon hayotining katta bir davrini (roman) qalamga oladi. Shunga ko'ra, adabiyotshunoslikda katta, o'rta va kichik epik janrlar ajratiladi. Biroq badiiy adabiyot taraqqiyotining keyingi davrlarida, eposga dramaning kirib kelishi va syujet vaqtining qisqara borishi barobari bu xil tamoyilning o'zgarishi ayon bo'lib qolayotir. Negaki, zamonviy nasrchilikda, masalan, qahramon hayotidan katta bir davrni emas, atigi bir etapnigina qalamga olingan romanlar ham yaratilmoqda (mas., "Kecha va kunduz", "Ulug'bek hazinasi"). Tabiiyki, bunday holatda epik asarlarni janrlarga ajratishda ularning boshqa jihatlariga ham e'tibor qilish zarur bo'ladi. Jumladan, asarda qo'yilgan muammolar ko'lamini janr xususiyatlarini belgilovchi unsur sifatida olinishi mumkin. Bu jihatdan katta epik shakl bo'lmish roman dunyoyu davrni bilish maqsadiga qaratilgan bo'lsa, qissa markazida qahramon xarakteri, hikoyada esa konkret hayotiy voqea turadi. Ko'ramizki, roman, qissa, hikoya janrlariga mansub asar qahramonlari asarda tutgan mavqei, ahamiyati, vazifasi jihatidan farqlanadi. Roman muallifi uchun qahramon vosita, — dunyoni anglash (bunisi maqsad) vositasi, qissanavis uchun qahramonning o'zi maqsad (voqea-hodisalar vosita), hikoyanavis uchun voqeaning o'zi maqsad bo'lib qoladi.

Epik asarlarni janrlarga ajratishda, tabiiyki, hajm mezon boʻlolmaydi. Zero, ayrim hikoya yoki romanlar hajman qissalarga yaqin boʻlishi va aksincha holatlar kuzatilishi mumkin. Biroq odatan hikoya, qissa va romanlar hajmi sanoqdagi tartibga mos tarzda kattarib borishi ham inkor qilib boʻlmaydigan haqiqatdir.

Epik janrlar bir-biridan badiiy shakl xususiyatlari bilan ham farqlanadi. Masalan, syujet nuqtai nazaridan olinsa, roman koʻp planli murakkab syujetga egaligi, qissa syujeti asosan bosh qahramon tevaragida uyushishi, hikoya syujeti odatda bitta yoki bir-biriga uzviy bogʻliq bir necha voqea asosiga qurilishi kuzatiladi.

Hikoya, qissa va roman eposning asosiy janrlari sanaladi. Shu bilan birga, epik turning asosiy boʻlmagan qator janrlari ham mavjud. Ularni hayotni badiiy qamrash koʻlami jihatidan quyidagi tartibda tasniflash mumkin:

- 1) kichik epik shakllar: latifa, masal, hikoyat, rivoyat, ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, esse;
- 2) oʻrta epik shakllar: qissa (povest)
- 3) epos, epik doston, roman, epopeya

Hikoya — badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Jahon adabiyotida hikoya qadim anʼanalarga ega. Oʻtmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon unsuri boʻlib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan. Yevropa adabiyotida hikoyachilikning rivojlanishiga italyan yozuvchisi Bokachcho "Dekameron" asari bilan katta hissa qoʻshgan. Asarda 7 qiz va 3 yigitning 10 kun davomida aytgan 100 ta hikoyasi berilgan. Gi de Mopassan (Fransuz), O.Tenri (Amerika), A.P.Chexov (rus), A.Qodiriy, Choʻlpon (oʻzbek) hikoya janrining asoschilari hisoblanadi. Yevropa adabiyotida hikoya novella deb ham ataladi.

O‘zbek adabiyotida hikoya juda qadimdan boshlangan. Ilk yozma adabiy yodgorliklar — Kultegin va To‘nyuquq bitiktoshlarida bayon qilingan voqealar ishtirok etuvchilar tomonidan hikoya qilingan. Nosiriddin Rabg‘uziyning "Qisasi Rabg‘uziy" asarida ham axloqiy xarakterdagi hikoyaning yaxshi namunalari bor. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining 5-maqolotidagi "Hotami Toy hikoyati", 20-maqolatidagi "Ul qul hikoyati", "Sab‘ai sayyor" dostonidagi yetti musofir hikoyalari ham bu janrning ilk namunalari hisoblanadi. 16-asrda yaratilgan Poshshoxojaning "Gulzor" va "Miftoh ul-adl" asarlari o‘zbek hikoyachiligining rivojlanishiga asos bo‘lgan.

O‘zbek adabiyotida realistik hikoya janri 20-asr boshlarida shakllandi (Cho‘lpon, "Qurboni jaholat", "Do‘xtur Muhammadyor", 1914; A.Qodiriy, "Uloqda", 1915 va b.). 20-yillarda G‘.G‘ulom, A.Qahhor, Oydin va boshqalar bu janrda barakali ijod qildilar. 30-yillarda A.Qahhor hikoya ustasi sifatida tanildi. 50—60-yillarda S.Ahmad, 60 —70-yillarda O‘.Hoshimov, Sh.Xolmirzayevlar bu janr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shdilar.

"Hikoya" atamasi kengroq ma’noda biror voqeani gapirib berishni ham anglatadi. So‘zlab berilgan bunday voqelik o‘z qamrovi, hajmi, rang-barangligi bilan qissa yoki romanga xos bo‘lishi ham mumkin. Bunday hollarda bu atama janr ma’nosida tushunilmaydi. Masalan, O‘.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani 9 personajning 49 ta hikoyasidan tashkil topgan. Sh.Xolmirzayev "Olabo‘ji" asarini "romandan katta hikoya" deb ataydi. Hozirgi o‘zbek hikoyachiligi O.Muxtor, N.Aminov, S.Siyoyev, F.Musajonov, X.Sultonov, E.A‘zamov, N.Eshonqulov, Sh. Bo‘tayeov va boshqa yozuvchilar bilan boyidi.

Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo‘nda ifodalashga mo‘ljallangan. Unda shu voqeaga qadar personaj hayotida nima bo‘lgan, qanday ro‘y bergan, kim bilan — bular to‘g‘risida ma’lumot berish shart emas. Juda zarur bo‘lsa, ayrim detallar orqali ishora qilinishi mumkin. Masalan, A.Qahhorning "O‘g‘ri" hikoya sida Qobil boboning kechagi kuni haqida lom-mim deyilmaydi. Egamberdi paxta-

furushdan kichkina shart evaziga ikkita ho‘kiz olgan Qobil boboning ertasi to‘g‘risida "Bu shart kuzda ma’lum bo‘ladi", deb xabar beradi, xolos. G‘.G‘ulom esa "Mening o‘g‘rigina bolam" hikoyasidagi o‘g‘rining kechagi kunini lo‘nda detallar orqali to‘ldiradi. Uydan biron narsa olmay chiqib ketgan yigitning ertangi kuni haqida hech qanaqa ma’lumot bermaydi.

Ixchamlik hikoyaning muhim belgisi, lekin unda personaj hayotidan birgina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yo‘li, bir emas, bir necha odamlar taqdiri, xarakterning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi, muhim fazilat bo‘lib qolishi mumkin. Biroq har qanday ko‘rinishda ham tasvir siqiq tarzda beriladi.

Hikoya mazmuniga ko‘ra lirik, psixologik, falsafiy, ilmiy-fantastik, satirik, yumoristik yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ocherkka yaqin voqeyi hikoyalar (N.Fozilovning "Ustozlar davrasida") ham bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida bir mavzu, bitta qahramon hayoti bilan bog‘liq bir necha yozuvchi tomonidan yozilgan "hashar hikoyalar" ham uchraydi.

Qissa — badiiy adabiyotda epik janr turlaridan biri. G‘arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida povest ma’nosidagi qissa tushunchasi yo‘q, nasrning romandan boshqa barcha janrlari "novella" termini orqali ifodalanadi. Rus va o‘zbek adabiyotlarida qissaning hozirgi va qadimgi ma’nolari o‘rtasida farq bor. Masalan, qadimgi rus adabiyotida har qanday nasriy asar povest qissa deb atalgan. O‘zbek adabiyoti tarixida rivoyat usulida nasr yoki nazmda yozilgan tarixiy-afsonaviy asarlar qissa deb yuritilgan. Masalan, "Qissai Sayfulmuluk", "Qisasi Rabg‘uziy" va boshqa hozirgi ma’nodagi o‘zbek qissasi rus adabiyotidagi "povest" terminiga to‘g‘ri keladi va, asosan, roman bilan hikoya oralig‘idagi o‘rtacha hajmli nasriy janrni ifodalaydi. Qissa odatda, bir va bir necha shaxslar taqdiriga oid turli voqealarni o‘ziga asos qilib olishi bilan epik turning hikoya, hajmi va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissa hayot murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq, xarakter hamda voqelik ko‘lamini romanga qaraganda kamroq qamrab oladi.

Qissada u yoki bu shaxs hayotining ma'lum bir davri xronikal tarzda bayon qilinadi.
Qissada lirizm hikoya va romandagidan kuchliroq bo'lishi mumkin.

Roman kabi qissaning ham avtobiografik (Oybek, A.Qahhor, N.Safarov), tarixiy (Mirkarim Osim, Ya.Ilyosov va b.), fantastik (T.Malik, H.Shayxov, M.Mahkamov va b.) turlari bor. Hozirda qissa nasrning eng faol janrlaridan bo'lib, unda yosh yozuvchilar ham samarali ijod qilmoqdalar.

Darhaqiqat, yuqorida tilga olingan janrlar xususida fikr yuritar ekanmiz, taniqli hikoyanavis, o'tkir qalam egasi Shukur Xolmirzayevni nazardan chetda qoldirolmaymiz. Shukur Xolmirzayev ijodi hozirgi zamon o'zbek tilga adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko'p qirrali iste'dod sohibi Shukur Xolmirzayev adabiyotning turli janrlarida rang-barang badiiy asarlar yaratib, o'zbek adabiyoti xazinasini boyitgan. Adib o'zining rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari bilan hozirgi zamon adabiyotida munosib o'rin egallaydi.

SH.Xolmirzayev 1940 -yilda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tug'ildi. Maktabni a'lo baholar bilan bitirib, u 1956 yilda Toshkent Davlat Universitetiga o'qishga kirdi. Shukur Xolmirzayev eslashicha, maktabda o'qib yurgan chog'laridayoq unda adabiyotga havas uyg'onadi. Toshkent Davlat Universitetining filologiya fakultetida bu havas yanada ortadi. Xuddi shu yillari Shukur Xolmirzayev badiiy ijod sohasida dastlabki qadamlarini qo'yadi. Uning dadil ijod yo'liga kirishida fakultetdagi tanqidchi M.Qo'shjonov boshchilik qilgan adabiy to'garak katta maktablik vazifasini o'taydi. Dorilfununda Sh.Xolmirzayev jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishib, badiiy ijod sirlarini anglay boshlaydi.

Iqtidorli yozuvchi Shukur Xolmirzayev hozirgi o'zbek adabiyotida o'z ovozigacha, uslubiga ega bo'lgan ijodkorlardan hisoblanadi. U adabiyotimizga 1962-yil "Oq otli" povesti bilan kirib keldi. Povest bolalar uchun yozilgan bo'lib, unda yoshlarning o'ziga xos orzu o'ylari va hayotga qarashlari aks etgan.

SH.Xolmirzayev mazkur povestini e`lon qildirgandan so`ng o`tgan o`ttiz yildan ziyodroq davr ichida juda ko`plab hikoyalar, bir qancha qissa va romanlar yozdi.

Yozuvchi Sh.Xolmirzayev hikoyanavis sifatida qaysi mavzuni qalamga olmasin, qandaydir muhim, salmoqdor ijtimoiy fikrni ifodalashga intiladi. Uning bu xususiyatlari, ayniqsa, keyingi yillarda yaratilgan “Shudring tushgan bedazor”, “Cho`loq turna”, “Podachi”, “Ko`k dengiz”, “Xorun ar-Rashid”, “Qadimda bo`lgan ekan”, “Tabassum”, “Ustoz”, “Farzand” kabi hikoyalarida yaqqol namoyon bo`lgan. Sh.Xolmirzayev hikoyalarida, asosan, Surxon vohasining kaloriti yorqin sezilib turadi. Yozuvchining hikoyalarida surxondaryoliklarning o`ziga xosligi, yorqin va katta xarakterlari, yashash tarzi yaqqol ko`zga tashlanib turadi. Uning “Arpali qishlog`ida”, “Olis yulduz ostida”, “Miltiq otildi”, “Kimsasiz hovli”, “Ov” kabi hikoyalari, “So`nggi bekat”, “Qil ko`prik”, “Olabo`ji” romanlarida bu koloritni aniq sezish mumkin. To`g`ri, yozuvchi Shukur Xolmirzayev dastlabki ijodiy qadamlaridanoq “o`zligini”, o`z uslubini topib olgani yo`q. U tinimsiz izlanishlar, ijodiy tajribani o`zlashtirish jarayonida shunga erishdi. “Mana, o`tmishu hozirgi zamon adabiyoti yozish usullaridan ozmi-ko`pmi o`rganib, o`z yo`limni topish ustida ko`p o`ylandim, - degan edi yozuvchi, - bu izlanish hatto nuqta, vergulni qayerga qo`yish borasida ham bo`ladi”.

Bu uning, xususan, so`nggi yillarda yaratayotgan asarlarida o`zining yorqin ifodasini topmoqda. Yozuvchining “Hayot abadiy”, “Kulgan bilan kuldirgan”, “Og`ir tosh ko`chsa”, “Boychechak ochildi”, “Cho`loq turna”, “Qariya”, “Ot egasi” kabi hikoyalarida katta ijtimoiy ma`nolar o`z ifodasini topgan. Ular zamondoshlarimizning o`zaro munosabatlari orqali ochib beriladi.

“So`nggi bekat” Sh.Xolmirzayevning jiddiy yutug`i hisoblanadi. Yozuvchining o`zi ham: “ijodda, izlanishda o`zimning ham kelib to`xtagan so`nggi bekatim bu”, - deb yozadi romandagi so`zboshida. Romanning “So`nggi bekat” deb atalishida ma`lum ramziy ma`no mavjud. Asar qahramonlari hayotidagi muhim nuqta

– so`nggi bekati tasvirlanadi. Romanda Bekat qishlog`i, u yerda yashayotgan zamondoshlarimizning amalga oshirayotgan ishlari haqida hikoya qilinadi. Asar qahramonlari so`nggi bekatga yetib kelishgach, bosib o`tgan yo`llari haqida o`ylaydilar. So`nggi bekat ular hayotida muayyan darajada burilish nuqtasi bo`ladi. Ular yo`l qo`ygan xatolarini anglab yetishadi va uni tuzatishadi. Masalan, O`ktam, Nasiba bilan aloqasini uzadi. Nasiba ham O`ktam bilan baxtli bo`la olmasligini bilib, qishloqdan ketadi. Quvvatbekov esa shaharga ketmay, qishloqda qolishga qaror qiladi. Ishoq chol esa o`zining kim ekanligini anglab yetadi, Shamsuddinov ham o`zidagi kamchiliklarni tuzatishga kirishadi.

Yozuvchi Sh.Xolmirzayev ijodi kitobxonlar diqqatini jalb etib kelmoqda. Uning “To`lqinlar” povesti haqida S.Mirvaliyev, A.Rasulov, M.Olimov, A.Quljonov, N.Shukurov, S.Mirzayev, A.Aliyev kabi tanqidchilar bahslashgandilar. Uning “So`nggi bekat” romani bo`yicha professorlar U.Normatov va Ochil Tog`ayevlar munozara qilishgan. Sh.Xolmirzayevning boshqa asarlari ham fikr olishuvlarga sababchi bo`lgan. Demak, u zamondoshlarimizni to`lqinlantiradigan, salmoqli ijtimoiy fikrga molik asarlar ijod qilayotgan yozuvchidir. Uning shunday asarlaridan biri 80-yillarning o`rtalarida e`lon qilingan bo`lib, u roman “Qil ko`prik” deb ataladi.

Katta epik asarlar yaratish sohasida muayyan tajriba to`plagan Shukur Xolmirzayev 80-yillarning ikkinchi yarmida yana zamonaviy mavzuda roman yaratishga kirishadi. Natijada uning “Yo`lovchi” romani maydonga keladi. Muallif unda qayta qurish yillarining manzaralarini gavdalantirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan edi. Asarda yozuvchi asosiy qahramonini yo`lga tushirib, sovxozdan sovxozga, qurilishdan qurilishga o`tkazadi. U atrofda sodir bo`layotgan voqealarga qahramon ko`zi bilan qarab, ularni tushunishga, tahlil qilishga va baholashga intiladi. Qahramon ko`zidan qishloqlardagi dahshatli mehnat ham, axloqiy tubanliklar ham, nopok kishilaru ishbilarmon rahbarlar ham, hatto uzoq Kubadagi qiyinchiliklar ham qochib qutilmaydi. Yozuvchi qahramonni yo`lga chiqarib, uni obyektidan-obyektga o`tkazaversa, safari hech qachon tugamasligini payqab qoladi. Buning ustiga u

kitobdagi ko'p voqealar juda sun'iy va mantiqsiz chiqqanligini sezadi. Shuning uchun ham Sh.Xolmirzayev boshda ikki kitob sifatida o'ylangan bu romanni davom ettirmaslikka qaror qiladi. "Yo'lovchi" romani shu tariqa yozuvchi ijodida bir tajriba bo'lib qoladi.

Shunga o'xshash tajribani yoki izlanishni Sh.Xolmirzayevning keyingi yirik asari "Ola bo'ji" deb atalgan "Romandan katta hikoya"sida ham ko'rish mumkin.

Shunga qaramay Shukur Xolmirzayev o'zbek nasri taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan yozuvchi hisoblanadi. Uning ko'p jihatdan mukammal hikoyalari, "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" qissasi, "So'nggi bekat" va "Qil ko'prik" romanlari xuddi shundan guvohlik beruvchi asarlar hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan davrda Shukur Xolmirzayev ijodining yetuklik bosqichi boshlandi. Bu davrda yozuvchi "Bulut to'sgan oy", "Bandi burgut", "Ozodlik" kabi hikoyalarini va "Dinazavr" romanini e'lon qilib, hozirgi hayotning mohiyati, murakkabliklari, ziddiyatlari, qiyinchiliklari to'g'risidagi shafqatsiz haqiqatni ifodalashga intildi. Mazkur asarlar Shukur Xolmirzayev hozirgi o'zbek adabiyotida realistik metodning hayotbaxsh an'analari, tamoyillari yangidan tantana qilishi va ijobiy samaralar berishi yo'lida faol kurashayotgan yozuvchilardan biri darajasiga ko'tarilganligini yaqqol isbotlaydi.

"O'zbek xarakteri", "Qadimda bo'lgan ekan...", "Hukumat", "Yig'i", "Xorazm, jonginam", "Bahor", "Hayot abadiy", "Ahad Mirzo yig'ladi", "Yosuman", "Kechagi kun kecha" hikoyalari ham adibning naqadar yuksak iste'dod egasi ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, ushbu asarlar hayot haqiqatiga yaqinligi bilan ham e'tiborga loyiq.

Shu o'rinda Shukur Xolmirzayevning mohir essenavisligini ham e'tirof etish joizdir. Adibning "Esse – erkin ijod" mavzusida Til va adabiyot institutining aspiranti Marhabo Qo'chqorova bilan suhbatida shunday jumlar qayd etilgan: "Bizda bir kekxa yozuvchi bor. Janrlarning bir-biridan farqini bilmagani bilan faxrlanib

yuradi. «Man bilmayman qanaqa janrda yozib qo‘ydim. Kitobxonga yoqsa, bas», deydi. Va janrdan janrning farqini Sadriddin Ayniy ham bilmaganini ro‘kach qiladi. Ha, endi bunday «bilmaslik»ning sabablari bo‘lsa bordir, albatta...

Ammo shofyor odam mashinaning mashinadan farqini, chavandoz yigit otning otdan farqini bilganidek adib degani ham adabiyot ilmidan baholi qudrat xabardor bo‘lishi kerak. Bu — aksioma, singlim. Endi mening «esse»ga, o‘zingiz aytmish, uning «tabiati»ga doir mulohazalarimga kelsak, ma’lumingiz, asosan hikoyanavis sifatida gapni hikoyadan boshlasam.

Ruslarda «rasskaz» — «rasskazat»dan olingan deyдилar. Ya’ni bir voqeani «aytib berish, hikoya qilish» demakdir. Boshda aksar rus adiblari haqiqatan ham «hikoya qilish, bayon etish» yo‘lidan borganlar. Hatto frantsuz, hatto hind adiblari ham avvalda shu yo‘sinda ijod qilganlar. Keyinchalik ijodning tadrijiy takomili taqozosida Chexov kabi novator yozuvchilar chiqib: «Yo‘q, voqeani bayon qilmaslik kerak, balki ko‘rsatish lozim», deb shu yo‘rig‘da asarlar bitganlar. Illo, «ko‘rsatish, xolis tasvirlash yo‘li» — asl adabiyotning yo‘li edi.

Demak, hikoyada ma’lum bir voqea (inson hayotining ma’lum bir bo‘lagi) tasvirlanadi. Demak, xolis tasvirlanadi va aksar hollarda hikoyadan chiqariladigan xulosa o‘quvchiga havola etiladi... Eng yaxshi hikoyalar shu tariqa yoziladi. Shu o‘rinda aytib ketishni istar edimki, bugungi kunda — keyingi o‘n yilliklarda yozilayotgan hikoyalarning ko‘pchiligida orqaga qaytishni, ya’ni oddiy bayon qilish, shunchaki aytib berishni ko‘raman. Bu hol — o‘sha mualliflarning qandaydir ongli ravishda «ortga», aniqrog‘i, hikoya janrining ibtidoiy holatlariga qaytishidan dalolat bermaydi — aksincha: o‘sha mualliflarning hikoya janri xususiyatlaridan, hikoyaning janr sifatidagi takomilidan bexabar ekanligidan dalolat beradi.

Men bunday havaskor adiblarni yuqoridagi aytganim — «janrning janrdan farqini bilmaydigan» adiblarga o‘xshataman. Endi «ocherk» janrining o‘ziga xos jihatlariga kelsak, bunda ham ma’lum bir voqea — inson qismatining bir bo‘lagi qalamga olinadi-yu, ammo hikoyadan farqli o‘laroq ocherkda mavjud — bor hayotiy odam qalamga olinadi. Shu bois muallifning o‘sha odamga — qahramonga munosabati

ochiq-oydin boʻrtib turadi. Shuning uchun hamdir men oʻqigan aksar ocherklarda ijobiy xislatli kishilar tasvirlanadi... Endi «Esse»ga kelsak, bu janr hikoya, ocherk janridan juda yosh boʻlishiga qaramay, yozuvchiga behad keng erkinliklar beradi: yaʼni esse yozguvchi adib tasvirlayotgan yoxud bayon etayotgan voqea-hodisaga — yana oʻsha gap: inson qismatining maʼlum davri boʻlagiga nisbatan oʻz munosabatini (ocherkdagi kabi) ochiq-oshkor bildirib turishi barobarida (bu yoʻrugʻda) oʻz koʻnglida tugʻilgan qandaydir his-hayajonini ham, hatto shaxsiy mulohazalarini ham bemalol yozish imkoniga egadir. Demak, aytish mumkinki, esse janri ocherk bilan hikoya oʻrtasidan oʻsib chiqqan janr — tasvir usulidirki, u maqola — maqola ilmiy boʻladimi, badiiyoq boʻladimi, baribir, — maqolaga xos unsurlardan ham foydalanadi, toʻgʻrirogʻi, ularni-da oʻziniki qilib oladi.

Esse ham shu tariqa paydo boʻlgan ekan. Darvoqe, uning paydo boʻlgan makoni Fransiya hisoblanadi. Umuman, fransuz adabiy tafakkuri hamisha boshqalardan oldinroqda yurgan va zamonning talabu ehtiyojlarini boshqa dunyo adiblaridan ilgariroq his etgan. Qarangki, «roman» janri ham dastlab fransuzlarda paydo boʻldi va eng dunyoviy-milliy romanlar oʻshalarda yaratildi. Buyogʻi ham qiziq: taajjub qilasanki, «Antiroman» (Sartr asarlari) ham oʻshalarda paydo boʻldi”.

“Essega murojaat qilishimning boisi, - deydi adib, - feʼlimda boʻlsa kerak: bolalikdan erkinlikni sevardim. Esse — erkin janr, bundan tashqari, u agar taʼbir joiz boʻlsa, «razmersiz janr»ki, kiyim tanlaganda boʻyinggayu eningga oʻlchab oʻtirganday siqilmaysan”.

X U L O S A

XX asr oʻzbek adabiyotida oʻziga xos uslubga ega boʻlgan ijodkorlardan biri Shukur Xolmirzayev sanaladi. Shukur Xolmirzayev oʻzbek adabiyotiga 60-yillarda kirib keldi. Ilk hikoyalari bilanoq oʻquvchilar qalbini zabt etdi. U yaratgan hikoyalar Abdulla Qahhor eʼtiboriga tushdi. Keyinchalik romanchilikka ham qoʻl urdi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi obrazlarga alohida ahamiyat qaratdi. Ularni samimiy va tabiiy qiyofada aks ettirishga intildi. U yaratgan hikoyalarda ayniqsa bola obrazi alohida ahamiyat kasb etdi.

Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachilik san'atining ustози Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag'ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Shukur Xolmirzayev o'ndan ortiq hikoyalarida bola ruhiyatini yoritishga harakat qildi. Bu obraz o'ndan ortiq hikoyalarda aks etgan bo'lsa-da, bir-birini takrorlamaydigan xarakterlar galeriyasi bo'lib gavdalandi.

Shukur Xolmirzayev o'ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilikdan, biryoqlamalikdan, bayonchilikdan qochadi, so'zga xasis bo'lsada, fikrini o'quvchiga to'la va yorqin etkazishga erishadi. Biroq ba'zan uning asarlari tugallanmagandek taassurot uyg'otadi. O'quvchi asar davomini kutadi. Qahramonlar portretini chizmaydi, asosiy e'tiborini xarakter yaratishga qaratgandek ko'rinadiki, bu o'quvchini o'ylashga, chuqur mulohaza qilishga majbur qiladi. Asar qahramonlari ustidan chiqarilgan hukm o'quvchi e'tiboriga havola etiladi. Har bir o'quvchi qanday asar o'qimasin o'qigan asar qahramonlarining taqdirini o'zi xohlaganidek bo'lishini istaydi.

Adibning "Qorbobo keladi" hikoyasida bola obrazi ruhiyati ifoda etilgan. U bola bo'lganda ham juda sodda, ishonuvchan, qalbi pok, orzu qilgan narsalarini o'zi xohlaganday tasavvur qiladigan va shunga o'zi ham ishonadigan obraz sifatida tasvirlangan.

Yozuvchining "Bahor" hikoyasida esa tog'li hududlarda yashovchi, qalbida ilk muhabbat kurtak otayotgan va bu ayni bahor faslida daraxtlar uyg'onib, barg yozayotgan fasl tasvirlanib hikoyaga yanada joziba bergan.

“*Jo’raboshi*” hikoyasi o’zlarini ko’chaning “xo’jayinlari” deb, biluvchi bir guruh, har xil yoshdagi bolalarning hayotidan olingan haqqoniy lavhadir. “Ko’cha xo’jayinlari” ning boshlig’i Habibulla ismli bola bo’lib, u harbiy xizmatga ketish arafasida o’z “ishchilari” bilan xayrlashishi, ularga vazifalar tayinlashi arafasida ulardagi ruhiyatning o’zgarishi orqali bolalar hayotini tasvirlaydi. Bolalik, o’smirlik, o’spirinlik davri va ular bilan xayrlashuv sifatida ifoda etiladi.

Adibning “*Nasib etsa*” hikoyasida haqiqatgo’y bola to’g’risida gap boradi. Elyor Bo’ritosh opasini juda yaxshi ko’radi. U ishdan kelgan zahoti bola uning atrofida girdi kapalak bo’lib o’ynar, u bilan sihatlashar edi.

Bo’ritoshni qishlog’idan Berdiyori yaqinda olib qochib kelganligi uchun Elyor unga oilasi, qishlog’i to’g’risida o’zini qiziqtirgan savollarni beraveradi. Shu orqali bola ruhiyati asta-sekinlik bilan ochila boradi. Adib bola ruhiyati orqali inson hayotidagi o’zgarishlarning ta’sirini ushbu hikoyada tasvrlaydi va buni uddasidan chiqadi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida bola ruhiyatini ochar ekan ko’proq ularni qiziqarli holatlarda aks ettirishga harakat qiladi. Bunday paytda yozuvchi bolalar hayotida yuz berishi mumkin bo’lgan voqea – hodisalarga e’tiborini qaratadi. Masalan, maktab tasvirini berish orqali unda bolalarning maktab yoshiga xos bo’lgan jihatlarini ochishga harakat qiladi, qishloq hayotidan lavhalar keltirish orqali esa, tabiat va bola ruhiyatidagi o’xshashliklar yoritiladi. Bolalar turmush tarzining ko’p qismini egallab turadigan jarayon bu-o’yin. Yozuvchi hikoyalarida o’yin epizodidan foydalanar ekan, keltirilgan o’yinning qanday o’ynalishi, o’ynalish qonun-qoidalari haqida ham gapirib o’tadi. Bundan yozuvchining o’zbek milliy o’yinlari turkumiga kiruvchi o’yinlaridan anchagina yaxshi xabardor ekanligini bilib olamiz.

Yozuvchi hikoyalarida murg’ak bolaning ko’nglidan o’tayotgan tuyg’ularni mahorat bilan ochib bergan. Ko’ngil oynasi bir sinsa, yoki lat yesa qayta tuzatib bo’lmaydigan, shisha misoli. Ko’ngil bir ozor yesa o’z holiga kelishi, avvalgiday

bo'lishi qiyin. Shukur Xolmirzayev bola obrazini yaratar ekan bu jihatlarni ham yoddan chiqarmaydi va uni mahorat bilan ko'rsata oladi.

Xullas, Shukur Xolmirzayev o'ndan ortiq hikoyalarida bola obrazini yaratgan. Bolalarga xos bo'lgan ruhiy kechinmlalar, hissiyotlar, ularni larzaga solgan hodisa va voqealar bola tilidan ifoda etilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Ўзбекистон, 2008 йил.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Шарқ, 1998 йил.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Тошкент: Ўзбекистон, 2012 йил.

II. Ilmiy adabiyotlar :

1. Адабий турлар ва жанрлар. I жилд. –Тошкент: Фан, 1991- йил.
2. Адабиёт назарияси. 2 томлик. –Тошкент: Фан, 1978 -йил.
3. Бобоев .Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент:Ўзбекистон, 2002- йил.
4. Bugungi o'zbek adabiyotining ba'zi muammolari. –Samarqand: SamDU, 2013-yil.
5. Дониёрова Ш. Ш.Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги. –Тошкент: 2000- йил.
6. Каримов Н ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998- йил.

7. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009- йил.
8. Мирзаев С, Шермухаммедов С. Ҳозирги замон ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993 -йил.
9. Мирвалиев С, Шокирова Р, Ўзбек адиблари. –Тошкент: Фан, 2007-йил.
10. Норматов У. Ижод сеҳри. –Тошкент: Шарқ, 2007- йил.
11. Норматов У. XX аср адабиёти. –Тошкент: Шарқ, 2007- йил.
12. Норматов У. Қалб инқилоби. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986- йил.
13. Норматов У. Янги ўзбек адабиёти. –Тошкент: Университет, 2007- йил.
14. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик: Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. –Тошкент: Шарқ, 2007- йил.
15. Сойимов Б. Улуғ ватан уруши даври ўзбек адабиётининг жанр хусусиятлари. –Тошкент:Фан, 1984- йил.
16. Султонов И. Адабиёт назарияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980- йил.
17. Тошпўлатов А. Новелла жанри. –Самарқанд: СамДУ, 2013- йил.
18. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. –Тошкент: Шарқ нашриёт – матбаа аксиядорлик компанияси бош таҳририяти, 2002- йил.
19. Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. –Тошкент: 2004- йил.
20. Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: 1983- йил.
21. Умуров Ҳ. Таҳлил санъати. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978- йил.
22. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995- йил.
23. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Тошкент: Шарқ, 2004 -йил.
24. Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. –Тошкент: Маънавият, 2010- йил.
25. Шукуров Н. Адабиётшуносликка кириш. –Тошкент:Ўқитувчи,1979- йил.

26. Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973- йил.
27. Қўшжонов М. Адабиётнинг қўш қаноти. –Тошкент: 1978- йил.
28. Қўшжонов М. Моҳият ва бадият. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977- йил.
29. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 2004-yil.
30. Хотамов Н, Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983- йил.
31. Ҳомидова М. Бир образда икки қиёфа талқини. //Ўзбек тили ва адабиёти , 2001-йил, № 4.
32. Ғофуров И. Ўттиз йил изҳори. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987 -йил.
33. www.ziyouz.com kutubxonasi

III.Badiiy adabiyotlar:

1. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. I том. –Тошкент: Шарқ, 2003 йил.
2. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. II том. –Тошкент: Шарқ, 2005 йил.
3. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. III том. –Тошкент: Шарқ, 2006 йил.
4. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. IV том. –Тошкент: Шарқ, 2007 йил.